

“Kelajak soati” darsining oliy ta’lim muassasasi talabalari uchun mashg’ulot ssenariysi:

5-mavzu: “O‘qituvchi va murabbiylar kuni”

Dars maqsadi: Talabalarda o‘qituvchi va murabbiylarning jamiyat va davlat hayotidagi o‘rni, ularning mehnatini qadrlash hamda ushbu kasbga nisbatan hurmat tuyg‘usini rivojlantirish. Pedagog kasbining ijtimoiy ahamiyati, mashaqqatli, mas’uliyatli va ehtiromga loyiq ekani haqida mulohaza yuritish va unga nisbatan talabalarda ongli yondashuvni takomillashtirish.

Aniq maqsadlar:

1. Talabalarda ustozning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va “O‘qituvchi va murabbiylar kuni”ning ma’naviy- tarixiy mazmunini anglash, “ustozga hurmat - ilmga hurmat” tamoyilini qabul qildirish.
2. O‘zbekistonda ustoz nufuzini yuksaltirishga qaratilgan islohotlar (Konstitutsiya 52-modda, “Pedagogning maqomi” Qonuni, rag‘bat mexanizmlari) haqida aniq tasavvur berish va ularning talabalik hayotiga ta’sirini tushuntirish.
3. Ustozdan olingan fikr-mulohazani shaxsiy rivoj rejasiga (SMART) aylantirish, akademik halollik, intizom va muloqot madaniyatini amaliy qadriyat sifatida mustahkamlash.
4. “Ustoz–men–jamiyat” bog‘liqligini his ettirib, bir haftalik aniq og‘zaki majburiyatni e’lon qilish (konsultatsiyaga qatnashish, darsda faollik, tengdoshga yordam) va uni bajarish motivatsiyasini kuchaytirish.

 **Asosiy g‘oyalar:** O‘qituvchi va murabbiylar — millat kelajagi poydevori. Ustozga hurmat — ilmga hurmat, ilmga hurmat — Vatan kelajagiga sadoqatdir. Maktab–oila–mahalla uchligi ustozning tarbiyaviy kuchini birlashtiradi: talaba darsga mas’uliyati, halolligi va mehnatsevarligi bilan ustoz mehnatini qadrlaydi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya va “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi qonun ruhida biz ustozning sha’ni va qadr-qimmatini amalda asraymiz, jamiyatda ustoz

nufuzini o‘z xulqimiz bilan yuksaltiramiz. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: **“O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni tarbiyalash hamda xalqning ma’naviy, madaniy salohiyatini boyitishning asosi sifatida e’tirof etiladi”**.

☞ *Bugun ustozga hurmat — ertaga O‘zbekiston taraqqiyotiga xizmat.*

✓ **Darsdan keyin kutiladigan natijalar:**

1. Aqliy va tushunchaviy:

- Talabalar o‘qituvchining jamiyat taraqqiyotidagi rolini, Konstitutsiya va “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonun mazmunini izohlab bera oladi.
- Ajdodlar merosidagi ustoz siymosi (Amir Temur–Said Baraka, Navoiy) orqali ustozga hurmatning ma’naviy ildizlarini tahlil qiladi.

2. Hissiy va qadriy:

- Ustozga nisbatan hurmat, minnatdorlik va faxr tuyg‘ulari mustahkamlanadi.
- Akademik halollik, mehnatsevarlik va xizmatga tayyorlik shaxsiy qadriyat sifatida qabul qilinadi.

3. Amaliy ko‘nikmalar:

- Ustozdan olingan fikr-mulohazani shaxsiy o‘quv rejasiga aylantirib, haftalik 1–2 aniq qadam belgilaydi.
- Savol berish, bahs yuritish, dalil keltirish va qisqa, aniq og‘zaki nutq ko‘nikmalarini namoyon etadi.

4. Ijtimoiy-pedagogik:

- Guruhda hurmatli muloqot, o‘zaro yordam va “mentorlik” muhitini qo‘llab-quvvatlaydi.
 - Ustoz–talaba hamkorligini kuchaytirib, konsultatsiyalarda faol qatnashadi va tajriba almashadi.
-



Metapredmet: bu ta’limda talabalarning faqat bir fan doirasida emas,

turli fanlar, hayotiy vaziyatlar va ijtimoiy muhitda qo'llay oladigan umumiy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan yondashuvdir.

Masalan,

- **Adabiyot/Tarix:** ustozga bag'ishlangan maqol yoki baytdan 1 misra tanlab, Amir Temur–Said Baraka rivoyati bilan bog'lab 1–2 jumlada xulosa aytish (“ustoz–shogird qadriyati”);

- **Huquq/Fuqarolik savodxonligi:** Konstitutsiyaning 52-moddasi va “Pedagogning maqomi” qonunidan bitta normani oddiy tilga ko'chirib, “bu menga talaba sifatida nimani anglatadi?” degan 1 jumla bilan izohlash;

- **Muloqot/Kasbiy etika:** juftliklarda 60 soniyalik qisqa nutq: “Ustoz menga bergan 1 maslahatni 1 haftalik odatga qanday aylantiraman?” (qachon–qayerda–qanday).

 **Dars hamkori:** Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti: www.milliytarbiya.uz

 **Dars davomiyligi:** 45 daqiqa.

 **Tavsiya etilgan mashg'ulot shakli:** bilim beruvchi suhbat, videoparchalar, o'yin elementlari va qo'shimcha materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.

 **Materiallar to'plami:**

- ssenariy;
- uslubiy tavsiyalar;
- videomateriallar;

 **Dars tuzilishi 1 qism. Motivatsion**

Darsning birinchi qismining maqsadi - talabalarning mavzu muhokamasida faol ishtirok etishlari uchun sharoit yaratishdir. Talabalarning kelgusi faoliyatiga bo'lgan motivatsiya mashg'ulot mavzusini aks ettiruvchi materialni ko'rish va muhokama qilishga asoslanadi.

2-qism. Asosiy

Asosiy qismda o'quvchilar darsning asosiy ma'nolarini tushunish va ochib berishga yo'naltiriladi. Shu maqsadda talabalarga tasviriy materialni tahlil qilish, videolarni ko'rish va bilishga qaratilgan savollar taklif etiladi.

3-qism. Yakuniy

Dars g'oyalarini umumlashtirish, mashg'ulotga yakun yasash.